



Umidjon QURBONOV,  
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi, PhD  
E-mail: umidjon.qurbonov.81@mail.ru

JTSBMQTMOI Samarqand filiali dotsenti F.Eshnazarova taqrizi asosida

### SHAXS MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY ONG VA MILLIY O'ZLIK MASALALARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada shaxs ma'naviyatini shakllantirish borasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, unda ma'naviyatning inson va jamiyat hayotidagi o'rni, uning inson ruhiyati, milliy madaniyati va axloqiga ta'siri va insonlarning bir-birlariga bo'lgan samimiy munosabat, huquqiy-axloqiy tarbiyasiga bevosita bog'liqligi ko'rsatib o'tiladi.

**Kalit so'zlar:** Shaxs, yoshlar, tarbiya, ma'naviyat, axloqiy qadriyatlar, sog'lom farzand, farovon.

### ВОПРОСЫ НАЦИОНАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ И НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ ДУХОВНОСТИ

Аннотация

В данной статье основное внимание уделяется формированию духовности личности, в ней указывается на роль духовности в жизни человека и общества, ее влияние на психику человека, национальную культуру и нравственность, а также на искреннее отношение людей друг к другу, их непосредственную связь с правовым и нравственным воспитанием.

**Ключевые слова:** Личность, молодежь, воспитание, духовность, нравственные ценности, здоровый ребенок, благополучие.

### ISSUES OF NATIONAL CONSCIOUSNESS AND NATIONAL IDENTITY IN THE FORMATION OF PERSONAL SPIRITUALITY

Annotation

This article focuses on the formation of personal spirituality, it indicates the role of spirituality in human life and society, its impact on the human psyche, national culture and morality, as well as on the sincere attitude of people to each other, their direct connection with legal and moral education.

**Key words:** Personality, youth, upbringing, spirituality, moral values, healthy child, well-being.

**Kirish.** Jamiyatimizda o'zlikni anglash har bir inson uchun ma'naviy barkamollikning eng yuqori cho'qqisidan biridir. Chunki, u avvalo, o'zining kimligini anglasa, qaysi millatga mansubligini tushunib etsa, avlod-ajdodlari, ular qoldirgan ma'naviy merosni o'zlashtirishga, to'laqonli tugal va mukammal shaxs sifatida shakllanadi. O'z-o'zini chuqur anglash, bu - xalqning, millatning o'tmishini, avlod-ajdodlarining kim bo'lganligi, tarixiy taraqqiyot yo'lini va ularning jahon ilm-fani va madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan buyuk hissalarini anglashdir. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Jamiyatimizda sog'lom fikr, sog'lom kuch ustuvor bo'lishi uchun biz ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muammam o'ylashimiz, faol ish olib borishimiz zarur"[1] deb ta'kidlaydi.

Bugungi kunda zamonaviy jamiyatning turli qatlamlari orasidagi ijobiy ijtimoiy munosabatlarga erishish va ijtimoiy institutlarning faoliyatlarida milliy madaniy aloqalarning yo'lga qo'yilishi ushbu jamiyatda qabul qilingan milliy axloqiy mezonlarga tayangan holda amalga oshiriladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Bundan ko'zlangan asosiy maqsad jamiyatning barqaror rivojlanishiga erishishni ta'minlash bo'lib, bunda o'zlikni anglashpid shaxs ijtimoiylashuvdagi o'rni beqiyosdir. Aniqrog'i inson muayyan jamiyat a'zosi sifatida shakllanar ekan, milliy tildagi ajdodlar merosi va madaniyatni o'zlashtirmasdan turib avlodlarga ibratli milliy mafkurani yetkazib bera olmaydi. Jamiyat o'zgarishi bilan yangicha ma'naviy munosabatlarni asnosida kishilar bir-biri bilan ma'rifiy yo'nalishda aloqada bo'lishi jamiyatning barqaror suratda takomillashishi bilan bog'liq odatlarni yuzaga chiqaradi. Shu o'rinda mazkur tamoyillar odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda muhim rol o'ynaydi. Hozirgi zamonaviy davrda yoshlar o'rtasida doimiy ravishda bag'rikeng asosdagi munosabatlarni ta'minlash, uni ma'naviy amaliyotda keng qamrovli ro'yobga chiqarishga ehtiyoj oshib bormoqda. Vujudga kelayotgan texnogen madaniy tamaddunga oid yangicha

qadriyatiy yondashuvlar yoshlar ma'naviyatini tubdan takomillashtirishga qaratilgan xatti-harakatlarni talab etmoqda. Bu esa shaxs bo'lib shakllanishida o'rni katta. Jamiyat borlig'ining o'ziga xos jihatlari yaxshi tushungan, ijtimoiy taraqqiyotda shaxsning rolini chuqur anglagan shaxsgina umumijtimoiy maqsadlar yo'lida xizmat qiladi. To'g'ri, fuqarolik ongi shakllanishida kasbiy bilimlarning ham ahamiyati katta. "Muayyan kasb-hunarga doir bilimlarni o'zlashtirgan shaxsda ham fuqarolik ongi shakllana boradi"[2]. Buning ustiga, u ma'lum kasbni o'zlashtirish orqali Vatani manfaatlariga xizmat qilish imkoniyatlarini qo'lga kiritadi. Lekin hech bir bilimlar tizimi ijtimoiy bilimlar kabi shaxs fuqarolik ongini tizimli ravishda qaror toptirmaydi. Xuddi shuning uchun ham ijtimoiy bilimlarni shaxs fuqarolik ongining muhim elementi sifatida e'tirof etmoq dardor.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shaxs ma'naviyatini shakllantirish to'g'risida so'z borar ekan, ma'naviyatning inson va jamiyat hayotidagi o'rni, uning inson ruhiyati, milliy madaniyati va axloqiga ta'siri kabi hodisalarga ham e'tibor berish foydadan xoli bo'lmaydi. Inson shaxs sifatida shakllanib borar ekan uning ongida olam mavjudligi (borliq) haqiqati bilan uyg'un ravishda milliy ma'naviyatning Vatani, shaxs, millat, adolat, haqiqat kabi darajalari bilan birga shaxs ma'naviyatining asosiy jihatlari tashkil etuvchi imon, ilm, mas'uliyat va mehr kabi tamoyillarga nisbatan tasavvurlari rivojlanib boradi. Shuningdek, ma'naviyatga baho berishda u ikki ko'rinishda, ya'ni shaxs ma'naviyati va millat ma'naviyati ko'rinishida namoyon bo'lishini unutmashlik dardor. Inson ma'naviy takomili, hurfiylik, o'zlikni anglash va shu orqali haqiqatga yo'l topish hazrat Yassaviy ta'limotida markaziy o'rinni egallagan. Alloma "Shariat zohirda a'zolar bilan amal qilish, tariqat qalb bilan amal qilish, haqiqat esa sir (qalbdagi javhar, ko'ngil) bilan amal qilishdir"[3], deganlar.

O'zbek xalqi mentalitetida bag'rikenglik g'oyalarining yuksalishida ma'naviy-ma'rifiy omil va komil inson tarbiyasi muhim o'rin tutgan. Aniqrog'i muayyan bir millatga mansub bo'ladi. Har bir inson alohida shaxs sifatida kamol topar ekan, uning faoliyatiga atrofida muhit sezilarli darajada ta'sir

ko'rsatadi. Shunday ekan shaxsning ma'naviy kamolotida aynan u o'zi yashagan muhitning ta'sirini idrok etish etmasligidan qat'iy nazar muayyan elat yo millatga mansub ekanligini inkor eta olmaydi. Chunki hech bir shaxs millatsiz bo'lishi mumkin emas. Inson Vatandan va millatdan butkul ajralib yashaganidek, milliy ma'naviyatidan ayro holda rivojlana olmaydi. Shuning uchun ham shaxs o'z millati ma'naviyati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lmay turib, millat tarixini o'zida ifodalovchi shaxs maqomiga yetisha olmaydi. Shu o'rinda milliy o'zlik anglash baxt tushunchasi bilan xam ifodalashni yuuzaga chiqaruvchi qarashlar mavjud. Shu o'rinda shaxs ma'naviyatining shakllanishida milliy o'zlik anglashda ko'maklashuvchi manbalardan eng birinchisi va asosiyi bu ajdodlar merosidir.

Buyuk ajdodlarimiz qoldirgan ulkan milliy meros milliy ma'naviyatimiz asosini tashkil etadi. Shu o'rinda inson aqlning haqiqatlari va dalillari har kimga tegishli bo'lib, ularni birinchi marta ifoda etganlarning mulki emas, balki keyinchalik ifoda etganlarning mulkidir. "Ma'naviyat - inson hayotining gultoji. U har qanday sharoitda inson sha'nini, shavkatini, shonini, jamoatchilik orasidagi obro'-e'tiborini belgilaydigan muhim omillardan biri. Ma'naviyat - insonni xurofotdan, jaholatdan qutqarguvchi qudrat. Uni muqarrar kamolotga yetkazuvchi, hayotini shukuhlarga to'ldiruvchi ma'vo, barcha illatlardan asraguvchi xaloskor!"[4]. Yoshlarda milliy xususiyatlar va ma'naviyatini shakllanishida san'atning tarbiyaviy o'rni haqida gapirganda millatlar o'rtasida umummilliy tafakkurni rivojlantirish jarayoni ham qo'yilgan masalaning yechimi hisoblanadi. Bunda jamiyatning milliy g'oyasi millatlararo totuvlikni ta'minlash sohasida yo'lboshchi bo'lishi lozim. Chunki, milliy g'oyani singdirishda barcha ta'sir vositalari kabi san'at ham o'z o'rniga ega. Bu o'rinda yoshlarda kamgapiik va kamtarlik jamiyatda juda qadrl bo'lgan fazilatlaridir. Shaxsni tejamkorlikka o'rgatish va to'playdigan bilimlarini sarf qilishdan saqlanish kerakligini o'rgatish kerak. Faqat buyuk shoirlarga o'z san'atida erkinlik berishga ilohiy ruxsat berilishi kerak bo'lganidek, buyuk va yuksak qalblargagina o'zlarini odatdan ustun qo'yishga ruxsat beriladi. Raqibning bunday kurashga loyiqqligini topgan taqdirdagina shaxsni suhbatga yoki bahsga o'rgatish kerak. Bu jarayonda unga nafaqat o'zi uchun foydali bo'lgan barcha e'tirozlarni, balki bahs jarayonida dalillarning eng kuchlisini qo'llay olishni o'rgatish kerak. Unga dalillarning sinchkovlik bilan tanlashni, eng aniq va shu tufayli qisqa yo'lni topishni o'rgatish kerak.

"Milliy ong, milliy tafakkur va milliy o'zlikni anglashdan iborat bo'lgan uchlikka amal qilmagan, uni o'zida aks ettirmagan yohud uni rivojlantirishga va mustahkamlashiga yo'naltirilmagan g'oya o'ziga milliy g'oya maqomini ham ololmaydi"[5]. Millatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashda jamiyatning milliy g'oyasi jamiyat a'zolarini umummaqsad yo'lida birlashtirish vazifasini bajaradi.

Milliy o'zlikni anglash jarayoni esa olimlarimiz tomonidan alohida tadqiq etilib kelinmoqda. "Milliy o'zlikni anglash mintaqa miqyosida o'zaro hamjihatlik, tinchlik va barqaror rivojlanish muhitini shakllantiradi. Milliy va diniy "tolerantlik" ya'ni bag'rikenglik haqida milliy va mintaqaviy o'zlikni anglashsiz gapirish mumkin emas"[6]. Bugun insoniyat oldida ulkan marralarni egallash turgan bir paytda, tarixning haqiqatini anglash zarur. Keyingi yillardagi tadqiqotlar va ishlarni rivojlantirib, millatlarning taqdirini shunchaki o'rganishni emas, balki ularning kelgusidagi taqdirini turli tahdidlardan asrab qolish hisoblanadi. Ularda aks etadigan tarixiy faktlar keyingi avlodlarning taqdiri, nufuzining o'rtishiga yo'l ochishi, millatlarni hayotini boyitishi kerak. Shuningdek, millatlarni bir-biriga yaqinlashtirish va hamkorlikni rivojlantirish uchun o'zaro xalqaro

tashkilotlar bilan hamkorlik qilishimiz zarur. Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev so'z yuritarkan, "Bizning qadimiy va sahovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Yurtimizda hukm surayotgan do'stlik va birdamlik muhiti - tinchlik va barqarorlik, amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish, O'zbekistonning xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini yanada yuksaltirishning eng muhim omilidir"[7-295-296], deb ta'kidlaydi. Biz millatlararo madaniyatni voqelikda yorqin amal qilishni chuqur anglab, har bir hududning mentalitetiga mos qadriyatlar va o'zlikni anglash darajasini tadqiq etishimiz lozim. Chunki madaniyatlarining amal qilish mexanizmlari bir-biridan farq qilishi millatlarda turlicha talqin etiladi.

Yoshlarni vijdoni va fazilatlarini uning nutqida aks etsin va aqlidan boshqa qo'llanmani bilmasin. O'zining mulohazasida qilgan xatosini tan olish, hatto undan boshqa hech kim uni sezmagani bo'lsa ham, aql-idrok va samimiylik dalili ekanligini tushunishga majbur qilsin, u avvalo, shunga intilishi kerak..

Shuningdek, odamlar orasida bo'lganida, hamma narsaga va har kimga diqqat bilan qarash kerakligi haqida ko'rsatma berish kerak, chunki men juda qobiliyatli bo'lmagan shaxslar odatda eng yuqori mavqega erishishadi va taqdir o'z sovg'alarini umuman munosib bo'lmaganlarga topshirganini bilaman. Siz butun vujudingizni ishlatishingiz va har bir kishining fazilatlaridan ibratli o'rinarini olishingiz kerak. Yosh inson har birining fazilatlarini va xususiyatlarini baholab, o'zining tabiatidan kelib chiqib, ularning yaxshi xususiyatlariga qiziqishini va yomoniga nisbatan nafratini rivojlantiradi.

"Bizning hayotimiz - deydi Pifagor, olimpia o'yinlarida ko'psonli olomonning yig'ilishiga o'xshaydi. Ba'zilar musobaqalarda shon-sharaf qozonish uchun mashq qilishadi, boshqalari foyda olish uchun mollarni sotish uchun u erga borishadi. Ammo bu erda hech qanday foyda izlamaydiganlar ham bor - va ular yomon emaslar, ular bu qanday va nima uchun qilinganligini ko'rishni xohlashadi, ular aniqroq hukm qilish uchun shunchaki tomoshabin bo'lishni, boshqalarning hayotini kuzatishni xohlashadi va o'sha hayot haqida xulosa chiqarib, shunga mos ravishda o'zlarini tartibga solishni o'ylaydilar"[8]. Yuqoridagi fikrlardan ma'lum bo'lmoqdaki, shaxs madaniyati mazmuni jamiyatda hukm surayotgan shart-sharoitlar va ta'lim-tarbiyaga taqaluvchi omil ta'siri bilan shartlangan. Ushbu ta'sir tahlili shaxs fuqarolik madaniyatining o'zgarishi qonuniyatlariga doir ayrim xulosalarga kelish imkonini beradi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, shaxs ma'naviyatini shakllantirishda turli millat va xalqlarning madaniyatini bir-biri bilan bog'lash va ularning o'zaro hamjihatlikni yuksaltirish an'anasi shakllantirish lozim. Bu imkoniyatlar, turli millat vakillarining fikr-mulohazalar almashinuvi, ilmiy jamiyatlar va tarixiy zamonaviyliklarni o'rganishga imkon berdi va yoshlarda ijtimoiy hayotning voqeliklarini millatlararo madaniyatda ifodalash imkoniyatini vujudga keltirdi. Shu o'rinda shaxs ma'naviyatini shakllantirishda milliy o'zlik masalalari har bir millatning mustahkam e'tiqodi, madaniyati bo'lishligi, ularni bevosita va bilvosita keng ko'lamda amal qilishini ta'minlashga huquqi mavjudligi tarixdan o'z isbotini topgan. Shunday ekan, inson birinchi va oxirgi marta beriladigan hayot imkoniyatlaridan foydalanib, aql hukmi bilan yashay bilishi kerak. Shaxs ma'naviyatini va madaniyatidan joy olgan tasavvurlar va qadriyatlar, bilim va g'oyalar, qoida va normalar turli sohalarga dahldor bo'ladi. Ularning Vatan va jamiyat manfaatlarini o'zida mujassam qilgan, shu manfaatlariga mutanosib bo'lgan qismi shaxs fuqarolik madaniyatida mujassam bo'ladi. Shaxs ma'naviyatini o'z murakkab tarkibiga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2022. - B. 254 255
2. Чориев А., Чориев С. Ренессанс дэври Европа фалсафаси. -Т.:Тафаккур каноти, 2015. -Б.12.
3. Хожа Ахмад Яссавий. Devoni hikmat. // Yangi topilgan namunalari. - Т.: Movarounnahr. 2004. - B. 148.
4. Jo'rayev N. Ma'naviyat-inson qalbining sarchashmasi. -Т.: Ma'naviyat, 2015. -B. 30.
5. Отамуратов С. Миллий ривожланиш фалсафаси. - Тошкент: Академија, 2005. -Б. 108.
6. Саифназаров И., Обидов А. Динлараро хамжихатлик-ижтимоий барқарорлик омили. Монография. - Тошкент: Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi, 2019. - B. 19.

- 
7. Мирзиёев Ш. М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. 1-жилд. – Б. 295-296.
  8. Порфирий жизнь Пифагора // <http://psylib.org.ua/books/diogen1/txt12.htm>